XALQ QO‘ShIQLARI, DOSTONLARI VA ULARNING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Urazbaeva Gulshirin Kadirbaevna – *katta o‘qituvchi*
Romanova Sanobar Yerejepovna – *pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*
rsanobar75@gmail.com
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

НАРОДНЫЕ ПЕСНИ, ЭПОСЫ И ИХ ВОСПИТАТЕЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ

Уразбаева Гулширин Кадирбаевна – *старший преподаватель*
Романова Санобар Ережеповна – *кандидат педагогических наук, доцент*
Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

TRADITIONAL SONGS, EPICS, AND THEIR MORAL SIGNIFICANCE

Urazbaeva Gulshirin Kadirbaevna – *senior teacher*
Romanova Sanobar Yerejepovna – *Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor*
Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Tayanch so‘zlar: musiqiy faoliyat, san’at, xalq termalari, milliy meros, ma’naviy tarbiyalash, ijodiy qobiliyat, musiqiy asar, asar ijrochiligi

Rezyume. Maqola mazmuni musiqiy ta’limda va davlat ta’lim standartining joriy etilishi, milliy musiqiy merosidan xalq termalarining ma’naviy tarbiyaviy ahamiyati haqida yo‘zilgan.

Ключевые слова: музыкальная деятельность, искусство, народные термары, национальное наследие, духовное воспитание, творческие способности, музыкальное произведение, исполнение произведение

Резюме. Содержание статьи посвящено музыкальному образованию и внедрению государственного образовательного стандарта, а также духовно-воспитательному значению народных терма из национального музыкального наследия.

Key words: musical activity, art, folk thermal baths, national heritage, spiritual education, creative abilities, musical work, performance work

Summary. The content of the article is dedicated to musical education and the implementation of the state educational standard, as well as the spiritual and educational significance of folk terms from the national musical heritage.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, milliy-ma’naviy qadriyatlarimizga, ayniqsa ko‘p asrlik milliy musiqiy merosimizga, uni o‘rganishga va bu boradagi tadqiqotlarga hukumatimiz tomonidan juda katta e’tibor berildi. Porloq kelajak sari intilayotgan har bir xalq o‘z tarixini, milliy an’analarini va madaniyatini e’zozlab, undagi boy, takrorlanmas manbalardan ijodiy foydalanishi lozimligi bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

Terma o‘zbek xalq og‘zaki ijodida qo‘shiq va doston janrlarining orasida bog‘lovchi ko‘prik vazifasini o‘tovchi kuyga solib aytiladigan she`riy asar adabiyot bo‘lsa ham musiqa folklorining mustaqil janri hisoblanadi. Termalarning yaratilishida baxshi va qissaxonlarning hamda jirov va ohinlarning roli juda kata bo‘lib ularning ijod namunalari har xil bo‘ladi.

Terma deb asosan pand – nasihat, odob-axloq, soz va badiy so‘z haqida yaratilgan, hayotdagi turli hodisalar, biror shaxs yoki jonivorning ta’rifi yoki tanqidiga bag‘ishlangan, baxshilar tomonidan kuylanadigan 10-12 misradan 150-200 misragacha, ba’zan undan ham ortiq hajmdagi lirik, liro-epik asarlarga aytiladi. Bu atama terib, tanlab olish degan ma’noni anglatadi. Baxshilarning o‘zlari ham «Terma shu, terib aytib borasan» deyishadi. Termalar 3, 4, 5, 6 misrali bandlardan tuzilishi mumkin. Odatda termalar dostonlarni ijro etishdan odin «Nima aytay?» – deb boshlanadi [1:3]. Ba’zan buni «Doston terish» deb ham yuritiladi. Shuning uchun ham termalarni doston ijro etish jarayonida kirish qismi ya’ni so‘z boshi deyish mumkin. Ayrim hollarda dostonlardan olib aytilgan parchalar ham terma deb yuritiladi. Termalarning ko‘pgina qismini baxshilarning tarjimai holi bilan bog‘liq «Kunlarim», «Do‘mbiram», «Dutorim» kabi asarlar tashkil etadi. Bu asarlarning yaratilishi xalqimizning ma’naviy-maishiy qiyofasi, ijtimoiy-siyosiy kurashlari, axloqiy-estetik qarashlari, adolat va haqqoniyat, ozodlik va tenglik, qahramonlik va vatanparvarlik haqidagi g‘oyalari bilan chambarchas bog‘liq.

«Doston» so‘zi forscha «doston» (داستان, hikoya)[1] so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, aslida «qissa», «hikoya», «sarguzasht», «tarix», «ta’rif» va «maqtov», shon-shuhrat, mashhurlik ma’nolarida ishlatiladi. Adabiy atama sifatida bu so‘z xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyotdagi yirik hajmli epik asarni anglatadi. Taniqli rus va o‘zbek folklorshunosi, akademik Viktor Maksimovich Jirmunskiyning xalq og‘zaki ijodi ifodasiga ko‘ra «Epos-bu xalqning qahramonlik g‘oyasi ko‘lamidagi jonli o‘tmishidir»[2]. Uning ilmiy-tarixiy qimmati, ayni paytda juda katta ijtimoiy, madaniy-tarbiyaviy ahamiyati ham shundadir.

XX asrga kelib sovet tuzumi davrida siyosat xalq ijodi va milliy folklor qo‘shiqlariga, dostonchilikka va milliy ruxdagi barcha yaratuvchilikka cheklov qo‘yilib xalq ijodi va kelib chiqishi hamda o‘zligi yo‘qoldi. Lekin bu ungacha bo‘lgan davrlarda ham ko‘p urushlar, tarixiy qiyinchiliklar davrida madaniy va ma’naviy an’analarimiz saqlanmay qoldi. Ammo qishloqlarda bu an’analarning ayrimlari qisman xalq orasida og‘zaki ijodida hozirga qadar saqlanib kelmoqda. Asrimizning ulkan qurilishlarida – umumxalq hasharlarida, xalq orasidagi milliy bayramlarda, bayram-sayllarda doston va undan parchalar tinglash odat tusiga kirgan.

[1] https://www.izohli.uz/words/%20DOSTON
[2] https://api.unilibrary.uz/storage/PublisherResourceFile/174 212/images/1669698638.pdf?utm_source

Uzoq oʻtmishda guruh-guruh boʻlib xalq sayillarida, ommaviy bayramlarida turli-tuman tomoshalar koʻrsatgan xalq qiziqchilari, qoʻgʻirchoqbozlar, dorbozlar, raqqos va xonandalarni ijodiy uyushmalarini folklor ansamblini oʻziga xos namunalari deyish mumkin. Chunki folklor asarlarini ommaviy ravishda ijro etuvchilarning aksariyati professional boʻlmay, balki havaskor ijrochilar boʻlib, ularni repertuari ham sof xalq ijodidandir.

Barkamol insonni tarbiyalashda umumbashariy qadriyatlarimiz, ma'naviyat sohasida belgilangan maqsadlarni amalga oshirish uchun oʻtgan davr ichida mamlakatmiz rahbariyati tomonidan juda katta ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda.

Bu an'analarimiz mustaqillik yillarida qayta tiklanib davlatimiz tomonidan qoʻllab-quvvatlash ishlari amalga oshirilishi natijasida qanchadan qancha milliy kontsepsiyalar ishlab chiqildi va ta'lim darajasida islohatlar olib borildi, davlat dasturlari ishlab chiqildi, ilmiy tadqiqot ishlari yoʻnaltirildi va hokazo.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Bolalar musiqa asarlarini tinglash madaniyatini puxta egallashlari, ularning ichidan oʻzlariga kerak, yoki kerak emaslarini, yaxshi yoki yomonlarini ajrata bilishlari, qisqacha aytganda bolalarning ma'naviy ongini musiqa orqali shakllantirish ularning ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasiga oʻta kuchli ta'sir koʻrsatuvchi vosita boʻlib xizmat qiladi. Bolalar tomonidan ijro etiladigan musiqaning bolalar ongiga yaxshi taʻsir qilishi avvalo milliy musiqalarimizni idrok etishdan boshlanishi lozim. Milliy istiqlol sharofati bilan milliy musiqiy merosimizga milliy-ma'naviy qadriyatlarimiz qatorida alohida e'tibor berila boshlandi. Endilikda biz xalqimizning ajoyib, xilma-xil va bir-biridan goʻzal mahalliy musiqiy an'analarini, mumtoz musiqa namunalarini tinglab idrok etish va ulardan ma'naviy zavq olish, ruhiy bahramand boʻlish imkoniga ega boʻldik. Milliy musiqa xalqimiz boy ma'naviyatining, barkamol ruhiyatining sadolardagi goʻzal badiiy ifodasi boʻlishi bilan bir vaqtda yangi, buyuk davlat bunyodkorligi yoʻlida tinmay mehnat qilayotgan xalqimizga, jamiyatimizga ma'naviy, ruhiy quvvat bagʻishlovchi muhim vosita boʻlib xizmat qiladi.

Natijalar va muhokamalar. Turli san'at turlarini tahlil etib koʻradigan boʻlsak, musiqa san'ati boshqa san'at turlaridan oʻziga xos idrok etilishi bilan farq qiladi. Masalan, tasviriy san'at, haykaltaroshlik, arxitektura kabi san'at turlarida asar koʻrish vositasi bilan idrok etiladi. Shu tufayli unda asarning shaklini va mazmunini istalgan biron bir vaqt mobaynida ham bir butun holda, ham ayrim detallarga boʻlingan holda idrok etish va ongi rivojlanishi mumkin. Musiqa san'atida esa asarni koʻz bilan koʻrib, tushunib boʻlmaydi. Uni aniq bir vaqt mobaynida eshitish orqaligina idrok etish mumkin. Shuning uchun bizning ongimizda musiqa asarlari birdaniga bir butun holda gavdalanmay, balki asta-sekin asarning boʻlaklari biri ikkinchisining ortidan kelib, xotiramiz yordamida belgilanib, ma'lum vaqt mobaynida yaxlit bir asarga aylanadi. Aynan shu hususiyat musiqa asarining idrok etilishini belgilaydi. Demak musiqa shakli boshqa san'at turlaridagi shakllardan oʻzining idrok etilishi, ya'ni eshitish va vaqt bilan bogʻliqligi jihatidan farq qiladi. U doim muayyan bir jarayondan iborat boʻlib, koʻpincha oʻzgaruvchan intensivlikda rivojlanib boradi.

Yuqorida sanab oʻtilgan jihatlariga koʻra musiqa san'atining idrok etilishi soʻz san'atining idrok etilishiga oʻxshab ketadi. Adabiyotda ham asarni rejalashtirish jihatdan bir-biriga oʻxshashlik muttasil uchrab turadi. Masalan, romanlar ham garchi ularning syujeti har-xil boʻlsada ularning rejalashtirilishida ma'lum oʻxshashlik mavjud. Xuddi adabiy asarlar kabi musiqa asarlari ham turlicha qismlardan tashkil topadi. Musiqa insonga tez ta'sir etuvchi, imotsional hissiyotni faol rivojlantiruvchi ham psixologik, ham tarbiyaviy vositadir.

Ma'lumki, musiqa asarlarining shakli bir butun, yaxlit boʻlishi bilan bir vaqtda turli qismlarga ham boʻlingandir. Bu qismlar bir-biridan ma'no jihatdan u yoki bu darajada farq qiladi. Xuddi adabiy asarlar boʻlim, bob, abzats, gap, jumla va soʻzlarga boʻlingani kabi musiqa asarlari ham katta qismlarga, davriyalarga, musiqiy jumlalarga, motivlarga va submotivlarga boʻlinadi. Har bir inson musiqa bilan ona allasi orqali tanishib, butun umri davomida deyarli har kuni musiqadan zavq olib yashaydi. Musiqa inson ruhiyatining ajralmas qismi boʻlib hisoblanadi. U madaniy hayotimizda keng oʻrin tutgan, inson shaxsini tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega boʻlgan san'at turidir. Shuningdek, musiqa tarbiyasi insondagi nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan boʻlib, uni yuksak did bilan qurollantiradi va ma'naviy dunyoqarashini shakllantirib boradi.

Musiqa asarining tuzilishi musiqa shakli deb atalib, musiqa shakli alohida olingan har-bir asarning mazminiga qarab belgilanadi, u mazmun bilan birga yaratiladi va vaqtlarga ajratilgan barcha tovush elementlarning oʻzaro bogʻliq holda harakatlanishi bilan harakterlanadi.

Xulosa. Uzoq o'tmishga ega boʻlgan an'analarimiz mustaqillik yillari sharofati bilan qayta tiklanishi, 35 yildan beri qayta shakllanishi jarayonida turli san'at turlarini tahlil etilib oʻziga xos idrok etilishi,orqali shaklanishi va mazmunini istalgan biron bir vaqt mobaynida ham bir butun holda kelishi, yoshlarni Vatanparvarlik ruxida tarbiyalash va irodasini shakllantirish kabi ta'lim-tarbiyaning pedagogic kompetentsiyalari va milliy tarbiyaviy kontsepsiya orqali kelajak yoshlar bilan kelajakda sogʻlom fikrlovchi yoshlarni milliy an'analarimiz ruxida tarbiyali davlat qurish maqsadida rivojlantirishi mumkin. Ta'lim yuqorida aytilgan musiqiy hususiyatlar bilan tinglovchida musiqa asarining idrok etilishini belgilab shakllangan butun ongli, oʻzini idrok etuvchi komil insonlar etishtirishni maqsad qiladi [2]. Musiqa insonga tez har tomonlama yaxshi ta'sir etuvchi, imotsional hissiyotni faol rivojlantiruvchi ham psixologik, ham tarbiyaviy vosita ekan har bir inson musiqa bilan umr davomida yoʻldosh boʻluvchi musiqa san'ati madaniy hayotimizda keng oʻrin tutgan, inson shaxsini tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega boʻlgan san'at turini toʻgʻri shakllantirish yoʻlida izlanish kelajak tarbiyasida kafolat beradi.

Adabiyotlar

1. Safarov O. Oʻzbek xalq ogʻzaki ijodi. – Toshkent: «Musiqa» nashriyoti, 2010. 315-319- b.

2. Romanova S. Xalıq dóretiwshiligin búgingi zamanagóy jaslarǵa tásiri hám tárbiyası. Muzıka korkem onerinin Pedagogikalıq hám teoriyalıq tiykarları" atamasındaǵı Respublikaliq ilimiy-ámeliy konferenciya 25-aprel, 2025jil, -Nókis: Óz.Dav.Konservatoriyasi Nókis filialı. 23-25.